



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun
“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini
bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-iyundagi 198-son buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va kasbiy mahoratini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish orqali umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida **buyuraman:**

1. 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari bosqichma-bosqich joriy etilsin.

2. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etiladigan kunlar 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) 2-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (keyingi o‘rinlarda – Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi) tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha hududiy va tuman (shahar) ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi 4- va 5-ilovalarga muvofiq;

“Kasbiy rivojlanish kuni” o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari yakunida o‘qituvchilarga beriladigan sertifikat shakli namunasi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi (S.Radjabov)ga:

bir hafta muddatda hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhleri bilan hamkorlikda “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining mazmun-mohiyatini umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar xodimlari va fan o‘qituvchilariga tushuntirish ishlarini tashkil qilish;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining o‘quv materiallarini (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqish uchun Prezident va ixtisoslashgan maktablar hamda boshqa ta‘lim muassasalarining malakali o‘qituvchi va mutaxassislaridan iborat ishchi guruhini shakllantirish;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini Tartibga qat‘iy amal qilgan holda o‘tkazilishini ta‘minlash;

2024-2025-o‘quv yilidan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining birinchi bosqichini aniq (matematika, informatika) va tabiiy (fizika, biologiya, kimyo) fanlar yo‘nalishida boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlariga:

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etishda Tartibda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishini ta‘minlash;

“Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari o‘tkaziladigan tayanch maktablarga yaqin hududdagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarini birlashtirish va ro‘yxatini tasdiqlash;

o‘quv yili yakunida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini joriy etish doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotlarni tegishli yuqori turuvchi ishchi guruh yoki respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari:

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlantirish soati” tadbirlarining joriy etilishi munosabati bilan dars jadvallarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarning 0341-16-sonli SanQvaMga mos kelish choralarini ko‘rsin;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlantirish soati” tadbirlarida mentor-o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadigan fan o‘qituvchilariga asosiy ish joyi bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi direktor jamg‘armasi hisobidan lavozim maoshining 20 foizi miqdorida qo‘shimcha har oylik ustama haq to‘lanishini nazorat qilsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlantirish soati” tadbirlarini joriy etish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta‘minlasin.

7. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

X.Umarova



Toshkent sh.,
2024-yil “ 7 ” -avgust,
246-son

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun
fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati”
tadbirlari tashkil etiladigan kunlar**

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etiladigan kunlar quyidagi jadval asosida belgilanadi:

T/r	Kasbiy rivojlanish kunlari	O‘quv fanlari
1.	Dushanba	Ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) o‘qituvchilari
2.	Seshanba	Filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili/rus tili) o‘qituvchilari
3.	Chorshanba	Tabiiy fanlar (fizika va astronomiya, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fan – Science) o‘qituvchilari
4.	Payshanba	Aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) o‘qituvchilari
5.	Juma	Xorijiy tillar o‘qituvchilari
6.	Shanba	Amaliy fanlar (tasviriy san’at, chizmachilik, musiqa madaniyati, texnologiya, jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari

2. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari maktab o‘quvchilarining ta’til kunlarida ham tashkil etilishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan **"Kasbiy rivojlanish kuni"** va **"Kasbiy rivojlanish soati"** tadbirlarini tashkil etish qoidalarini belgilaydi.

2. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish tizimi uzluksizligini ta'minlash, ulardagi kasb mahorati va malaka saviyasining doimiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

3. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

"Kasbiy rivojlanish kuni" – o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o'z bilimini muntazam boyitib borish, zamonaviy o'qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta'lim tadbirlari o'tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

"Kasbiy rivojlanish soati" – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o'quvlarda o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan umumta'lim maktablarida qo'llashlarini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko'rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, dars kuzatish, refleksiv amaliyot hamda maktab negizida malaka oshirish tadbirlari o'tkaziladigan soatlar;

mentor-o'qituvchilar – "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish uchun fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida tanlab olingan yuqori malakali o'qituvchilar;

ishtirokchilar – "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlariga jalb qilingan umumiy o'rta ta'lim muassasalari fan o'qituvchilari;

master-trenerlar – mentor-o'qituvchilarga metodik jihatdan ko'mak beruvchi malakali mutaxassislar;

tayanch maktablar – "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari;

elektron qaydnoma – o‘qituvchilarning tayanch maktablardagi “Kasbiy rivojlanish kuni” va umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlariga ishtirok etish davomati va faolligi qayd etiladigan ma’lumotlar bazasi;

ekspertlar guruhi – “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari uchun dasturlar va o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha malakali pedagog va mutaxassislardan shakllantirilgan guruh;

koordinator – umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktorining “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga umumiy rahbarlik va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan o‘rinbosari;

yetakchi o‘qituvchi – “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarida ishtirok etadigan va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga mas’ul bo‘lgan tajribali faol o‘qituvchi yoki fan metodika birlashmasi rahbari.

2-bob. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining maqsadi va asosiy vazifalari

4. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining **maqsadi** o‘qituvchilarga kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

5. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablarning ilg‘or tajribalarini umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga joriy qilish;

o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish;

o‘qituvchilarning o‘zi ustida mustaqil ishlashi va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishini tashkil etish;

o‘qituvchilarni fan va uni o‘qitish metodikasiga doir yangiliklar bilan tanishtirish;

o‘qituvchilarga o‘zaro tajriba almashish, shu jumladan, “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish;

o‘qituvchilarning o‘zaro dars kuzatishi, reflektiv amaliyoti hamda maktab negizida malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratib berish.

6. Fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kun”lari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

3-bob. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish tizimi

7. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish tizimiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining muvofiqlashtiruvchi kengashi (keyingi o‘rinlarda – Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarning ishchi guruhleri (keyingi o‘rinlarda – Hududiy ishchi guruhlar);

tuman (shahar)larning ishchi guruhleri (keyingi o‘rinlarda – tuman (shahar) ishchi guruhi);

“Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlari tashkil qilinadigan tayanch maktablar (keyingi o‘rinlarda – tayanch maktablar);

“Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari tashkil etiladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari.

4-bob. “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish tizimi ishtirokchilarining vazifalari

8. Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining vazifalari quyidagilardan iborat:

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari uchun dasturlar va o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha malakali pedagog va mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhini shakllantiradi;

Ishchi guruhi tomonidan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari o‘quv materiallarining (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqilishini tashkil qiladi, tasdiqlaydi va muntazam yangilab borilishini ta’minlaydi;

Master-trenerlarni tayyorlash uchun qisqa muddatli o‘quvlarning o‘quv-metodik ta’minotini (o‘quv-mavzu reja, o‘quv dasturi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar materiallarini, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallarini) ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Master-trenerlarni tayyorlash uchun maxsus treninglarni tashkil qiladi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining o‘quv materiallarini hududiy ishchi guruhlariga yetkazilishini ta’minlaydi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarining tashkil etilishi ustidan umumiy nazoratni o‘rnatadi va muvofiqlashtiradi;

tayanch maktablardagi o‘quvlar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi kasbiy rivojlanish tadbirlarining tashkil etilishini saylanma tarzda o‘rganadi va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi.

9. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining ishchi organi hisoblanadi.

10. Hududiy ishchi guruhlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

fanlar kesimida tayanch maktablar va ularga birlashtiriladigan maktablar ro'yxatini shakllantiradi;

tuman (shahar) ishchi guruhlarini tomonidan taqdim etilgan mentor-o'qituvchilar tarkibini tasdiqlaydi;

mentor-o'qituvchilarni tayyorlash uchun qisqa muddatli o'quvni tashkil qiladi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etadi, nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

o'qituvchilarning “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlaridagi davomati va faol ishtirokini doimiy nazorat qiladi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan belgilangan tartibda ta'sir choralarini ko'radi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) ishchi guruhlariga o'quv, metodik va tashkiliy jihatdan ko'maklashadi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etishga doir tezkor ma'lumotlarni tuman (shahar) ishchi guruhlariga yetkazilishini va ulardan olinishini ta'minlaydi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini hududda tashkil etish tajribasini tahlil qiladi va mazkur tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga takliflar kiritadi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo'yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi hamda Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etadi.

11. Hududiy pedagogik mahorat markazi tegishli hududiy Hududiy ishchi guruhning ishchi organi hisoblanadi.

12. Tuman (shahar) ishchi guruhlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

tayanch maktablarda “Kasbiy rivojlanish kuni” va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

tasdiqlangan reja va dasturlarga binoan tayanch maktablarda “Kasbiy rivojlanish kuni” va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

ishtirokchilarning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari, shu jumladan, o'quv mashg'ulotlarini olib borishga malakali mutaxassislarini mentor-o'qituvchi sifatida jalb qiladi;

tayanch maktablardagi “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarida ishtirok etadigan yetakchi o‘qituvchilarning fanlar (fan bloklari) kesimida shakllantirilgan ro‘yxatini tasdiqlaydi va guruhlariga taqsimlaydi;

ishtirokchilarning tayanch maktablarda tashkil qilingan “Kasbiy rivojlanish kuni” o‘quvlaridagi davomati va faol ishtirokini nazorat qiladi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarning buzilishiga yo‘l qo‘yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan belgilangan tartibda ta’sir choralarini ko‘radi;

mentor-o‘qituvchilarning “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

mentor-o‘qituvchilarga belgilangan ustamalarning tayinlanishi va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qiladi;

har uch oyda bir marta mentor-o‘qituvchilarning faoliyati yuzasidan hisobotlarini muhokama qiladi, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

“Kasbiy rivojlanish kuni”da umumta’lim maktablarida tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarining qo‘yilmasligini qat’iy nazorat qiladi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi hamda hududiy ishchi guruhlariga taqdim etadi.

13. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tuman (shahar) ishchi guruhining ishchi organi hisoblanadi.

14. Tayanch maktablar direktorlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

“Kasbiy rivojlanish kuni” o‘quvlari uchun zarur sharoitlarni (ishtirokchilar guruhlarini uchun sinf xonalarini ajratish, kompyuter va proyektor qurilmalari bilan jihozlash, internet tarmog‘ining barqaror ishlashini ta’minlash) yaratadi;

“Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlarining tashkil etilishi holati, mentor-o‘qituvchi va ishtirokchilarning davomati haqida tadbir o‘tkazilgan kuni tuman(shahar) ishchi guruhlariga ma’lumot taqdim etadi.

15. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining vazifalari quyidagilardan iborat:

tayanch maktablarda tashkil etiladigan o‘quvlarda ishtirok etadigan yetakchi o‘qituvchilar ro‘yxatini fanlar (yoki fan bloklari) kesimida shakllantiradi va tuman(shahar) ishchi guruhlariga taqdim etadi;

tayanch maktablarda tashkil etiladigan “Kasbiy rivojlanish kuni” tadbirlariga muassasa yetakchi o‘qituvchilarining ishtirokini ta’minlaydi;

muassasada “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini samarali tashkil etish choralarini ko‘radi va zarur sharoitlarni yaratadi;

yetakchi o'qituvchi tomonidan tegishli fan o'qituvchilariga "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari dasturlari asosida mahorat darslari, trening mashg'ulotlari, dars kuzatish va reflektiv amaliyotlarni tashkil etilishini nazorat qiladi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan o'z vakolati doirasida belgilangan tartibda ta'sir choralari ko'radi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida ishtirok etmagan o'qituvchilarni ish kunida o'z ish joyida bo'lmagan xodim sifatida qayd etilishini nazorat qiladi.

16. Mentor-o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

tasdiqlangan reja va dasturlarga binoan "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini yuqori saviyada va samarali tashkil etish choralari ko'radi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini munosib tayyorgarlik asosida tashkil qiladi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarida o'zlashtirilgan materialni yetakchi o'qituvchilar tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida amalda qo'llanilayotganini saylanma tarzda o'rganadi va ularga metodik tavsiyalar beradi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlari samaradorligini oshirish va keyingi o'quv yilida dasturni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va tuman (shahar) ishchi guruhiga taqdim etadi;

"Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari doirasida tegishli fan metodika birlashmasi bilan birgalikda o'qituvchilarning darslarini tahlil qiladi, ularga metodik yordam ko'rsatadi, kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar beradi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlar haqida tuman (shahar) ishchi guruhiga ma'lum qiladi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarida ishtirokchilarning davomati va faolligini elektron qaydnomaga kiritadi;

"Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirida qatnashmagan ishtirokchi(lar) haqida u(lar) ishlaydigan umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbari va tuman(shahar) ishchi guruhlariga tadbir o'tkazilgan kuni ma'lum qiladi.

17. Yetakchi o'qituvchining vazifalari quyidagilardan iborat:

"Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari dasturlari asosida tegishli fan o'qituvchilariga mahorat darslari, trening mashg'ulotlari, dars kuzatish va reflektiv amaliyotlarni tashkil etadi;

o'qituvchilarning "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashlarini kuzatadi, jamoaviy muhokamasini tashkil qiladi va zarur tavsiyalarni beradi;

o'qituvchilarning o'zaro dars kuzatishini va ularning hamkasblari tomonidan tahlil qilinishini tashkil qiladi, shuningdek, har bir o'qituvchining refleksiv amaliyotini tashkil qilishga ko'maklashadi.

18. Koordinatorning vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim muassasasida "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tasdiqlangan dastur asosida tashkil etilishi va belgilangan tadbirlarning to'la va sifatli amalga oshirilishiga rahbarlik qiladi va muvofiqlashtiradi;

muassasada "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida tegishli fan (yoki fanlar bloki) o'qituvchilarining davomatini va yetakchi o'qituvchilarning faoliyatini nazorat qiladi;

yetakchi o'qituvchi bilan birgalikda "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari ishtirokchilarining davomati va faolligini elektron qaydnomaga kiritadi;

muassasada "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining tashkil etilishiga doir haftalik va oylik hisobotlarni tayyorlaydi, tuman (shahar) ishchi guruhiga taqdim etadi.

5-bob. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida ishtirok etuvchi o'qituvchilar

19. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining ishtirokchilari hisoblanadi.

20. "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlariga fanlar kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining yetakchi o'qituvchilari jalb qilinadi.

"Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlariga tuman(shahar) ishchi guruhlar qarori bilan hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli fandan dars beruvchi barcha o'qituvchilar jalb qilinishi mumkin.

21. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'qituvchisining "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida ishtirok etishi uning o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borish bo'yicha majburiyati hisoblanadi.

22. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida faol ishtirok etish, o'quv dasturida ko'zda tutilgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, tadbirlar doirasida o'tkaziladigan seminar va ochiq darslarda o'z taqdimotlari bilan qatnashish o'qituvchi uzluksiz kasbiy rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi.

23. Kasbiy rivojlanish kunlari tegishli fan o'qituvchilari uchun asosan kasbiy rivojlantirish tadbirlarida ishtirok etadigan **ish kuni** hisoblanadi.

24. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari o'tkaziladigan vaqtda tegishli fan o'qituvchilarini maktablardagi dars mashg'ulotlariga va boshqa tadbirlarga jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

25. O'qituvchining "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida ishtirok etmaslik holati shu kuni **ishga kelmaganlik** sifatida qayd etiladi va unga ish haqini hisoblashda amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olinadi.

26. O'qituvchi o'quv yili davomida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida **uzrli sabablarga** (mehnatga layoqatsiz bo'lgani, xizmat safarida bo'lgani va qonunchilikda belgilangan boshqa holatlar) ko'ra 12 soat qatnashmagan taqdirda unga "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida tashkil qilingan maxsus o'quv kursida malaka oshirish orqali zarur bilim va ko'nikmalarni egallash uchun imkoniyat beriladi.

27. O'qituvchi o'quv yili davomida "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida 12 soat **uzrli sabablarsiz qatnashmagan** taqdirda uning "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida tashkil qilingan maxsus o'quv kursida shartnoma asosida malaka oshirishi talab qilinadi.

28. O'quv yili davomida uzrli sabablarsiz qatnashmagan va "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida tashkil qilingan maxsus o'quv kursida malaka oshirmagan o'qituvchiga nisbatan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ta'sir choralari qo'llaniladi.

6-bob. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining shakllari

29. "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlarini tashkil qilishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish;

masofaviy ta'lim;

dual ta'lim;

mustaqil ta'lim.

30. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari tuman(shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlanadigan mashg'ulotlar jadvali asosida olib boriladi. Bunda mashg'ulotlarning barcha turlari uchun 45 daqiqa davom etadigan dars soati belgilanadi.

31. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari doirasidagi o'quv mashg'ulotlari ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, tajriba almashish darsi, trening, interfaol mashg'ulotlar va boshqa shakllarda olib boriladi.

7-bob. Master-trener va mentor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish

32. Master-trenerlar A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, hududiy pedagogik mahorat markazlari, pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar o'qituvchilari va mutaxassislari orasidan tanlab olinadi.

33. Master-trenerlarni tayyorlash uchun maxsus treninglar tashkil qilinadi.

34. Master-trenerlar muayyan ish hajmini bajarilishini ko'zda tutuvchi shartnoma asosida A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tomonidan belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

35. Tuman (shahar) ishchi guruhlar tomonidan o'quv yilining boshlanishiga qadar:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlar (yoki fanlar bloki) kesimida "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etishga mas'ul bo'lgan yetakchi o'qituvchilar ro'yxati shakllantiriladi.

fanlar (yoki fan bloklari) kesimida har biri 25-30 nafar yetakchi o'qituvchilardan (imkoniyatdan kelib chiqqan holda tegishli fandan dars beruvchi barcha o'qituvchilardan) iborat ishtirokchilar guruhlar shakllantiriladi va tasdiqlanadi;

malakali o'qituvchilar orasidan tanlab olish asosida har bir guruh uchun 1 nafardan mentor-o'qituvchilar tarkibi shakllantiriladi va tasdiqlash uchun hududiy ishchi guruhga taqdim etiladi.

36. Mentor-o'qituvchini tanlashda uning kasbiy mahorati, faolligi va liderlik xususiyatlari hisobga olinadi.

8-bob. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish

37. Har yili 1-avgustga qadar ekspertlar guruhi tomonidan navbatdagi o'quv yili uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" dasturlari va o'quv materiallari ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

38. Har yili 20-avgustga qadar mentor-o'qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil qilinadi va ular master-trenerlar tomonidan o'qitiladi.

39. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari har o'quv yilining oktabr oyidan boshlanadi va haftaning belgilangan kunlarida tashkil qilinadi.

40. "Kasbiy rivojlanish kuni" tadbirlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv dasturlari asosida bevosita mentor-o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadi.

41. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari o'quv yili davomida haftaning belgilangan kunlarida, shuningdek, o'quvchilarning ta'til kunlarida o'tkaziladi.

42. Mentor-o'qituvchilar tomonidan "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quv mashg'ulotlari ma'ruza, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, seminar, tajriba almashish darsi, trening, interfaol mashg'ulotlar va boshqa shakllarda innovatsion, pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalangan holda o'tkaziladi.

43. "Kasbiy rivojlanish kuni" mashg'ulotlarida mentor-o'qituvchi rahbarligida tegishli fan o'qituvchilari tomonidan muayyan mavzu bo'yicha taqdimot darslari o'tiladi, shuningdek, fan va uni o'qitish metodikasiga doir dolzarb yangiliklar bilan tanishish va muhokama qilish ishlari amalga oshiriladi.

44. Mentor-o'qituvchi "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarining mavzulari mazmunini ishtirokchilarga tushuntiradi va o'tilgan materialni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

45. Mentor-o'qituvchi "Kasbiy rivojlanish kuni" o'quvlarining mustaqil o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularini ishtirokchilar o'rtasida taqsimlaydi, mazkur mavzular bo'yicha ular tomonidan taqdimot qilish muddatlarini belgilaydi.

46. Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari tasdiqlangan dastur asosida yetakchi o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadi.

47. "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari doirasida yetakchi o'qituvchi tomonidan mahorat darslari o'tiladi, o'qituvchilarning o'zaro dars kuzatishi va ularning hamkasblari tomonidan tahlil qilinishi tashkil qilinadi, shuningdek, har bir o'qituvchining reflektiv amaliyotini tashkil qilishga ko'maklashiladi.

48. Ishtirokchilarning "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlaridagi davomati mos ravishda mentor-o'qituvchi, yetakchi o'qituvchi va koordinator tomonidan elektron qaydnomaga kiritiladi.

49. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarida to'liq ishtirok etgan va tegishli topshiriqlarni bajargan o'qituvchilarga "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan sertifikat beriladi.

9-bob. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari sifatini nazorat qilish

50. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining sifatini nazorat qilish respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi, hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlarlari tomonidan amalga oshiriladi.

51. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining sifatini nazorat qilish ularni bevosita kuzatish va tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

52. "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarining dasturlari takomillashtirish va mentor-o'qituvchilarning faoliyatini baholash maqsadida ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalari saylanma tarzda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali diagnostikadan o'tkazilishi mumkin.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

53. Ushbu Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2024-yil " 7 " -avgustdagi
246-son buyrug'iga
3-ILOVA

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi

TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	RADJABOV Sardor Baxtiyorovich	– Vazir o'rinbosari, rais
2.	UBBIYEV Alisher Tairovich	– Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori, a'zo
3.	TASHKENBAYEV Ulug'bek Nigmatovich	– Vazir maslahatchisi, a'zo
4.	YULDASHEV Maqsudjon Abdullayevich	– Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
5.	NORBOYEVA Dilshoda Abdunasimovna	– O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig'i, a'zo
6.	MURODOV Erkin Ergashevich	– Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i, a'zo
7.	SOBIROVA Dilfuza Azimdjonovna	– Axborot xizmati rahbari — Matbuot kotibi, a'zo
8.	HUSANOV Hasanson Husanxo'ja o'g'li	– Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, a'zo
9.	YULDASHEV Baxtiyor Gayradjonovich	– Yangi O'zbekiston universiteti prorektori, a'zo
10.	ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich	– A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori, a'zo
11.	XUDAYKULOV Sherzodjon Uktamovich	– Respublika ta'lim markazi direktori, a'zo
12.	DAVIDOVA Dilrabo Tadjibayevna	– Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi direktori, a'zo

13.	KAZAKOVA Saxiba Abdurayimovna	–	Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
14.	BURHONXO‘JAYEVA Xushnamo Madaminovna	–	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti prorektori, kotib

***Izoh:** Kengash a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish bo'yicha hududiy ishchi guruhlarining
NAMUNAVIY TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.		Lavozimi
1.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshliqlari, ishchi guruh rahbari
2.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident maktabi direktori, ishchi guruh rahbari o'rinbosari
3.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Pedagogik mahorat markazi direktori, ishchi guruh rahbari o'rinbosari
4.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Pedagogik mahorat markazi metodik xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'i, a'zo
5.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	*Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktabi direktori, a'zo
6.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Ta'lim tashkilotlari faoliyatini va pedagog kadrlar salohiyatini oshirishni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, ishchi guruh kotibi
7.	**		

Izoh: *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

*Hududda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktabi bo'lmagan holda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar rahbarlari ishchi guruh tarkibiga jalb etiladi.

** Ishchi guruh faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ishchi guruh rahbari tarkibiga qo'shimcha a'zolar kiritilishi mumkin.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar) ischi guruhlarining
NAMUNAVIY TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.		Lavozimi, ischi guruhdagi vazifasi
1.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i, ischi guruh rahbari
2.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	*Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, a'zo
3.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Maktablar faoliyatini muvofiqlashtirish sho'basini bosh metodisti, ischi guruh kotibi
4.	<i>Lavozimiga ko'ra</i>	–	Fanlar bo'yicha Mentor o'qituvchilar, a'zo
5.	**		

Izoh: Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*Hududda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ijod maktabi bo'lmagan holda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar rahbarlari ishchi guruh tarkibiga jalb etiladi.

** Ishchi guruh faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ishchi guruh rahbari tarkibiga qo'shimcha a'zolar kiritilishi mumkin.

**“Kasbiy rivojlanish kuni” o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan
tayanch umumiy o‘rta ta’lim muassasalari
RO‘YXATI***

T/r	T/r	Tuman (shahar) nomi	Maktab raqami	Tavsiya etiladigan fan yo‘nalishi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi				
1	1	Nukus shahri	5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	amaliy fanlar
2	2	Nukus shahri	10-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	aniq fanlar
3	3	Nukus shahri	18-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	ijtimoiy fanlar
4	4	Nukus shahri	33-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	boshlang‘ich ta’lim
5	5	Nukus shahri	42-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	filologiya fanlari
6	6	Nukus shahri	52-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	tabiiy fanlar
7	7	Amudaryo tumani	1-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	filologiya fanlari
8	8	Amudaryo tumani	30-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	boshlang‘ich ta’lim
9	9	Amudaryo tumani	55-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	ijtimoiy fanlar
10	10	Amudaryo tumani	38-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi	tabiiy fanlar
11	11	Amudaryo tumani	82-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	amaliy fanlar
12	12	Amudaryo tumani	56-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	aniq fanlar
13	13	Beruniy tumani	62-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	ijtimoiy fanlar
14	14	Beruniy tumani	67-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	filologiya fanlari
15	15	Beruniy tumani	69-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	aniq fanlar
16	16	Beruniy tumani	66-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	tabiiy fanlar

17	17	Beruniy tumani	64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
18	18	Beruniy tumani	63-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
19	19	Bo'zatov tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
20	20	Bo'zatov tumani	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
21	21	Bo'zatov tumani	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
22	22	Bo'zatov tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
23	23	Bo'zatov tumani	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
24	24	Chimboy tumani	49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
25	25	Chimboy tumani	40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
26	26	Chimboy tumani	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
27	27	Chimboy tumani	44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
28	28	Chimboy tumani	43-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	filologiya fanlari
29	29	Chimboy tumani	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
30	30	Ellikqal'a tumani	61-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	aniq fanlar
31	31	Ellikqal'a tumani	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
32	32	Ellikqal'a tumani	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
33	33	Ellikqal'a tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
34	34	Ellikqal'a tumani	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
35	35	Ellikqal'a tumani	13-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	filologiya fanlari
36	36	Kegeyli tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
37	37	Kegeyli tumani	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
38	38	Kegeyli tumani	14-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
39	39	Kegeyli tumani	9-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	aniq fanlar
40	40	Kegeyli tumani	8-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar

41	41	Kegeyli tumani	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
42	42	Mo'ynoq tumani	5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
43	43	Mo'ynoq tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
44	44	Mo'ynoq tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
45	45	Mo'ynoq tumani	3-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	tabiiy fanlar
46	46	Mo'ynoq tumani	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
47	47	Nukus tumani	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
48	48	Nukus tumani	1-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	filologiya fanlari
49	49	Nukus tumani	31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
50	50	Nukus tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
51	51	Nukus tumani	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
52	52	Qo'ng'iroq tumani	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
53	53	Qo'ng'iroq tumani	47-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
54	54	Qo'ng'iroq tumani	53-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
55	55	Qo'ng'iroq tumani	40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
56	56	Qo'ng'iroq tumani	37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
57	57	Qo'ng'iroq tumani	43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
58	58	Qonliko'l tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
59	59	Qonliko'l tumani	21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
60	60	Qonliko'l tumani	19-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
61	61	Qonliko'l tumani	18-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	tabiiy fanlar
62	62	Qonliko'l tumani	1-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	filologiya fanlari

63	63	Qorauzak tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
64	64	Qorauzak tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
65	65	Qorauzak tumani	26-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	aniq fanlar va tabiiy fanlar
66	66	Qorauzak tumani	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
67	67	Shumanay tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
68	68	Shumanay tumani	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
69	69	Shumanay tumani	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
70	70	Shumanay tumani	33-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar, amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
71	71	Taxiatosh tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar, tabiiy fanlar, filologiya fanlari va ijtimoiy fanlar
72	72	Taxiatosh tumani	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
73	73	Taxtako'pir tumani	3-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
74	74	Taxtako'pir tumani	6-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	aniq fanlar va tabiiy fanlar
75	75	Taxtako'pir tumani	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar va boshlang'ich ta'lim
76	76	Taxtako'pir tumani	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
77	77	To'rtko'l tumani	18-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	filologiya fanlari
78	78	To'rtko'l tumani	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
79	79	To'rtko'l tumani	16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
80	80	To'rtko'l tumani	29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
81	81	To'rtko'l tumani	40-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
82	82	To'rtko'l tumani	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
83	83	Xo'jayli tumani	22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar

84	84	Xo'jayli tumani	19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
85	85	Xo'jayli tumani	4-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
86	86	Xo'jayli tumani	35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
87	87	Xo'jayli tumani	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
88	88	Xo'jayli tumani	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	filologiya fanlari
Andijon viloyati				
89	1	Andijon shahar	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	tabiiy fanlar
90	2	Andijon shahar	18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	boshlang'ich ta'lim
91	3	Andijon shahar	31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	aniq fanlar
92	4	Andijon shahar	56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	ijtimoiy fanlar
93	5	Andijon shahar	30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	amaliy fanlar
